



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожионов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafoyevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	



VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Botirov Lazizbek Botirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Audit kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning dolzarbligi hamda moliyaviy hisobotlar auditida auditorlik dalillarini olish uchun qo'llaniladigan audit amallarining amaliy jihatlari yoritilgan. Auditorlik tekshiruvda mustaqil auditorlar tomonidan mijoz korxonalarida qo'llanilishi lozim bo'lgan audit amallarining ketma-ketligi belgilangan hamda ularni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro audit standartlari, ichki standartlar, auditni hujjatlashtirish, ish sifatini nazorat qilish, muhimlik darajasi, auditorlik riski, nazorat testlari, muvofiqlik auditi.

Abstract. This article examines the relevance of auditing financial statements and the practical aspects of audit procedures applied to obtain audit evidence in financial statement audits. The study establishes the sequence of audit procedures to be applied by independent auditors in client organisations and develops proposals and recommendations for addressing issues arising during their implementation.

Keywords: International Standards on Auditing, internal standards, audit documentation, quality control of audit work, materiality, audit risk, tests of controls, compliance audit.

Аннотация. В статье рассматривается актуальность проведения аудита финансовой отчётности, а также практические аспекты применения аудиторских процедур для получения аудиторских доказательств при аудите финансовой отчётности. Определена последовательность аудиторских процедур, которые должны применяться независимыми аудиторами в организациях-клиентах, а также разработаны предложения и рекомендации по устранению проблем, возникающих в процессе их применения.

Ключевые слова: международные стандарты аудита, внутренние стандарты, документирование аудита, контроль качества аудиторской работы, существенность, аудиторский риск, тесты средств контроля, аудит соответствия.

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy va institutsional islohotlar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlar izchil rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yordam beradigan, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining ishonchligi to'g'risida xulosa beradigan hamda hisobotni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, yo'l-yo'riq va boshqa turdagi amaliy yordam ko'rsatadigan professional xizmatning yangi shakli – auditorlik faoliyatiga ehtiyoj kuchaymoqda.

Mamlakatimizda korporativ boshqaruv tamoyillarini xalqaro talablar asosida rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish hamda ularning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur yo'nalishda 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli qarorning qabul qilinishi auditorlik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Mazkur qaror aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro audit standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni talab qiladi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobot auditi, auditorlik dalillarini shakllantirish va audit amallarini takomillashtirish masalalari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. A.D. Sheremet va V.P. Suys audit jarayonini tashkil etish, auditorlik tekshiruvlarini hujjatlashtirish hamda audit sifatini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratgan. AICPA tomonidan ishlab chiqilgan SAS No.56 standartida esa tahliliy amallarning audit dalillarini olish va moliyaviy ma'lumotlarni baholashdagi ahamiyati yoritilgan.



Audit sifatini nazorat qilish va auditorlik amallarini takomillashtirish bo'yicha G.A. Yudina, J. Robertson hamda V.I. Podolskiylarning ilmiy ishlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda auditni hujjatlashtirish, muhimlik darajasini aniqlash va auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, vinochilik sanoati kabi ishlab chiqarish xususiyatlari mavjud korxonalarda moliyaviy hisobot auditini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari yanada chuqurroq o'rganish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, audit amallarini umumlashtirish va amaliy hisob-kitob usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida vinochilik sanoati korxonalarida moliyaviy hisobot audit jarayoni tanlandi. Tadqiqot davomida xalqaro audit standartlari talablari, ilmiy manbalar hamda "Toshkent vino kombinati" AJ misolida muhimlik darajasini aniqlash va tahliliy amallarni qo'llash yondashuvlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Auditorlik tashkiloti auditning xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazilganligi haqidagi auditorlik fikrini tasdiqlash uchun muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni hujjatlashtirishi kerak. Ish hujjatlariga qo'yiladigan talablar AXS 230 "Auditni hujjatlashtirish"da keltirilgan. Auditning barcha jihatlari majburiy ravishda hujjatlashtirilishi kerak. Hujjatlashtirish va hujjatlar deganda audit davomida tuziladigan va bajariladigan ish hujjatlari tushuniladi.

Auditor o'zining professional fikriga asosanib, har bir aniq moliyaviy hisobot ko'rsatkichi bo'yicha ishchi hujjatlar hajmini, shu jumladan, moliyaviy hisobot auditida qo'llaniladigan tahliliy amallar nuqtayi nazaridan belgilash huquqiga ega.

Shu bilan birga, ishchi hujjatlarning shakli va mazmuni quyidagilar bilan belgilanishini hisobga olish kerak:

- auditorlik kelishuvining xususiyati;
- auditorlik hisobotiga qo'yiladigan talablar;
- tekshirilayotgan subyekt faoliyatining murakkabligi;
- auditorlik tekshiruvda qatnashayotgan auditorlarga ko'rsatmalar berish, ularni nazorat qilish, ish sifatini tekshirish zarurligi;

- audit jarayonida qo'llaniladigan maxsus usullar va uslublar [2].

Auditorlik tashkiloti o'zining ichki standartlari asosida ishchi hujjatlarni ishlab chiqishi mumkin. Ular qog'oz shaklida, elektron shaklda yoki axborotni saqlashning boshqa shakllarida tayyorlanishi mumkin. Ish hujjatlarining majburiy rekvizitlariga quyidagilar kiradi: auditorlik tashkilotining nomi, tekshirilayotgan subyekt nomi, tekshirilayotgan davr, audit amallari vaqti, ijrochi, nazorat tartib-qoidalarini tayyorlash va amalga oshirish sanasi, ularni amalga oshiruvchi shaxslar, ularning imzolari, shuningdek, ijrochining imzosi va hokazo.

Shuningdek, ushbu ishchi hujjatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: mijoz korxona biznesining tavsifi, auditni rejalashtirish, tekshirilayotgan subyektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarini dastlabki baholash, bu baholashni audit davomida tasdiqlash; auditorlik riskini, muhimlik darajasini baholash, auditorlik tanlovi va uni o'tkazish usullari, o'tkazilgan nazorat testlari natijalari, muhim tahliliy amallar, tekshirish bo'yicha auditorning natijalari va xulosalari, auditor xulosalarini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar [3].

Muvofiqlik auditini o'tkazishda ishchi hujjatlarning ba'zi fayllari (papkalar) doimiy yoki joriy fayllar sifatida tasniflanishi mumkin. Doimiy faylda tekshirilayotgan obyektni faoliyatining xususiyatlarini ochib beruvchi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan yangilanadi. Ushbu faylda nizomning nusxalari, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomalar, litsenziyalar va shunga o'xshash boshqa ma'lumotlar mavjud. Joriy fayl ma'lum bir davrdagi audit bilan bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Joriy fayl ishchi hujjatlarini auditorlik topshirig'ining quyidagi bosqichlari bo'yicha shakllantirish taklif etiladi: tashkil etish va rejalashtirish, audit o'tkazish, auditorlik dalillarini umumlashtirish va tizimlashtirish, moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorning professional xulosani shakllantirish hamda sifat nazoratini monitoring qilish.

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va rejalashtirish bosqichi ishchi hujjatlarda oshkor qilingan ma'lumotlarning minimal miqdori bilan ifodalanishi kerak. U tekshiruvni rejalashtirish bo'yicha materiallarni (auditorni tayinlash to'g'risidagi buyruq, guruhni tasdiqlash, audit rejasi, auditorlik amallarini bajaruvchilar, sanalar, vaqtlar ko'rsatilgan dastur), mustaqillik talabiga rioya qilish, mustaqillikka tahdidlarning mavjud emasligi to'g'risidagi materiallarni o'z ichiga oladi. Shu sababli auditorlik tashkiloti buyurtmachi bilan shartnoma shartlari, tekshirilayotgan subyektning faoliyatini, u amalga oshirilayotgan muhitni tushunish, moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarning jiddiy noto'g'ri ko'rsatilishi riskini baholash, normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilmaslikni baholash bo'yicha alohida ishchi hujjatlarni ishlab chiqishi lozim.

Tekshiruv bosqichi, qoida tariqasida, auditorlik tashkilotining moliyaviy hisobotlarni tekshirish asosidagi audit rejasi va dasturiga muvofiq segmentlar bo'yicha ishchi hujjatlarni, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning umumiy muvofiqligini tekshirishni o'z ichiga olishi kerak [4].



Segmentlar bo'yicha ish hujjatlari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: segment (bo'lim) nomi, muvofiqlik bo'yicha audit amallari o'tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlar, axborot manbalari (birlamchi buxgalteriya hujjatlari, buxgalteriya hisobi registrlari, mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar), baholangan risk darajasi, muhimlik darajasi, tekshiruv natijalarini baholash, umumiy to'plamni o'rganish usuli (kompleks, tanlab olish), tanlash hajmi, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur shartlarga muvofiq tanlangan elementlarga nisbatan qo'llaniladigan audit amallari va ularning natijalarini tahlil qilish ma'lumotlari aks ettirilishi lozim.

Auditning xalqaro standartlari mazmunidan kelib chiqib, tanlangan elementlarga nisbatan amalga oshirilgan audit tartib-taomillarini tasdiqlash uchun tekshirilayotgan subyektning tegishli hujjatlari nusxalari taqdim etilishi kerak. Biroq amalda ushbu tartib-taomillarni amalga oshirish cheklangan resurslar, shu jumladan, texnik va vaqtinchalik to'siqlar tufayli har doim ham o'tkazilmaydi. Bunday holda, auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan noto'g'ri ma'lumotlarni tekshirilayotgan subyektning tegishli hujjatlari nusxalari, zarur bo'lsa, bayonotlar va tushuntirishlar, yozma maslahatlar bilan tasdiqlash majburiy talab hisoblanadi.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarning muvofiqligini tekshirish bo'yicha ish hujjatlari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: hujjatning normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi, buxgalteriya hisobi va balansning identifikatsiyasiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi, undagi muhim ma'lumotlarning oshkor etilishi, ya'ni hisobot sanasidan keyingi voqea-hodisalar, bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatning shartli holatlari, tekshirilayotgan subyekt faoliyatining uzluksizligiga ta'sir qiluvchi omillar, istiqbolga oid ma'lumotlar, buxgalteriya siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq tuzatishlar, aniqlangan xatolar va boshqalar, shuningdek, ular bo'yicha xulosalar, audit amallari natijalari [5].

Ichki ish hujjatlari auditorlik tashkilotida saqlanadi va auditor bilan kelishilgan hollar bundan mustasno, odatda, tekshirilayotgan subyektga taqdim etilmaydi. Amalda bu mijoz korxonaning savollari bo'yicha maslahatlarga rasmiy javoblar va mijozning roziligi bilan auditor tomonidan tuzilgan tashqi so'rovlarning nusxalari bo'lishi mumkin. Auditorlik tashkiloti ishchi hujjatlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlashi shart. Ish hujjatlari auditorning mulki hisoblanadi. Auditorning ixtiyoriga ko'ra, ular tekshirilayotgan subyektga taqdim etilishi mumkin, lekin buxgalteriya hisobi o'rnini bosa olmaydi.

Ishlab chiqilgan ishchi hujjatlar va auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlar auditida tahliliy amallarni qo'llash algoritmini ishlab chiqish kerak. Mazkur ishchi hujjatlarni auditorlik tekshiruvi davomida tekshirilayotgan moliyaviy hisobotlarga nisbatan qo'llash amaliyotini bevosita ko'rib chiqamiz.

Masalan, muhimlik darajasi buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlaridagi xatoning chegaraviy qiymati sifatida tushuniladi, shundan boshlab ushbu hisobotlarning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqara olmaydi va to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qila olmaydi.

Moliyaviy hisobotning xususiyatiga qarab, auditor muhimlik darajasini ham butun moliyaviy hisobot darajasida, ham buxgalteriya balansiga, ham shunga o'xshash operatsiyalar guruhlariga va ma'lumotlarni oshkor qilishga nisbatan ko'rib chiqadi. Auditorlik tashkilotlari muhimlik darajasini hisoblashda o'z yondashuvlarini ishlab chiqishlari va audit amallarini rejalashtirishda, moliyaviy hisobotdagi buzib ko'rsatishlar oqibatlarini baholashda foydalanishlari kerak. Asos sifatida 320-sonli AXS "Auditni rejalashtirish va o'tkazishda muhimlik"da taklif qilingan muhimlik darajasini hisoblash metodologiyasini olishimiz mumkin [6].

"Toshkent vino kombinati" AJ misolida muhimlik darajasini hisoblashni ko'rib chiqamiz.

1-jadval
Muhimlik darajasini aniqlash¹

Asosiy ko'rsatkichlar	Asosiy ko'rsatkichlar summasi (ming, so'm)	Muhimlik darajasi, %	Muhimlik chegarasi summasi (ming, so'm)
1	2	3	4
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda	137 683 173	5	6884158,65
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	725 281 664	2	14505633,28
Balans jami	544 852 300	2	10897046
Xususiy kapital	258 965 083	10	25896508,3
Umumiy xarajatlar	638 584 860	2	12771697,2

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



MDCh = $(6884158,65 + 14505633,28 + 10897046 + 25896508,3 + 12771697,2) / 5 = 14191008,69$

Bizga berilgan 4-ustundagi 5 ta ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik o'rtacha miqdorini hisoblab topamiz: 14191008,69.

Muhimlik darajasi: 14 191 008 ming so'mga teng.

2-jadval

Ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatdan chetlanishlari²

Ko'rsatkichlar	O'rtachadan og'ish, %
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda	-0,51
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	0,02
Balans jami	-0,23
Xususiy kapital	0,82
Umumiy xarajatlar	-0,10

Umuman olganda, hisobot bo'yicha ma'lumotlarning noto'g'ri ko'rsatilishining muhimlik darajasi balansning muhim moddolari o'rtasida ushbu moddalarning balans valyutasidagi solishtirma og'irligiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Har qanday jarayonni algoritmlashtirish, shu jumladan, moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallardan foydalanish, metodologiyani amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan amallar ketma-ketligini tizimlashtirish imkonini beradi. Tahliliy amallar moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi ehtimoliy bog'liqliklarni tahlil qilish orqali moliyaviy ma'lumotlarni baholashni o'z ichiga oladi, shuningdek, aniqlangan og'ishlarni o'rganish imkonini beradi.

Shunday qilib, moliyaviy hisobotlar auditida tahliliy amallarni qo'llash jarayoni batafsil testlarni talab qiladigan buxgalteriya hisobining yuqori riskli sohalar (segmentlari) mavjudligini aniqlash hamda tegishli audit dalillarini olish imkonini beradigan yetarli va tegishli dalillarni to'plashga imkon beradigan ketma-ket harakatlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan moliyaviy hisobotlar auditida tahliliy amallarni qo'llash bo'yicha ketma-ketlik va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, tahliliy amallar auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallarni o'tkazishda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqilgan va tavsiflangan bo'lib, bu moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallarni qo'llash orqali auditorlik dalillarini olishga yondashuvni birlashtirish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallarni qo'llash bo'yicha korxonaning ichki standartlarini ishlab chiqish uchun tartib-taomillar ko'rsatib berildi. Jumladan, moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallarni qo'llash texnikasi batafsil bayon etilgan, auditni optimallashtirish imkonini beruvchi tahliliy amallarni qo'llash bo'yicha ishchi hujjatlarni shakllantirish va qayta ishlash, auditorlik dalillarini olish va ulardan moliyaviy hisobot elementlarining ishonchliligi to'g'risida fikr bildirish uchun foydalanish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar yuzasidan fikrlar yoritib berildi. Bu esa audit sifatini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son qarori "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-3914502?%2000>
2. Шеремет, А. Д. Аудит: учебник / А. Д. Шеремет, В. П. Суйц. — Москва: ИНФРА-М, 2010.
3. Statements on Auditing Standards No. 56 (AU Section 329): Analytical Procedures / American Institute of Certified Public Accountants (AICPA). — New York: AICPA, 1988.
4. Юдина, Г. А. Контроль качества аудита: монография / Г. А. Юдина. — Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2012.
5. Робертсон, Дж. Аудит / Дж. Робертсон; пер. с англ. — Москва: Контакт, 1993. — 496 с.
6. Аудит: учебник / под ред. В. И. Подольского. — Москва: Юрайт, 2011.

2 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>